

INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING YOZUV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNALOGIYALARNI TUTGAN O'RNI

Tojibayeva Nigora Mamutxon qizi
Namangan Davlat Universiteti doktaranti
Tojibayevanigora047@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada siz xorijiy tillarni o'qitishda, o'quvchilarning yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda foydalaniladigan raqamli texnologiyalarni va unumli veb sahifalarining o'рни va uning til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samarali ahamyatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Shuningdek bugungi kunda keng foydalanilayotgan texnologiyalarning pedagogik-didaktika xususiyatlari haqida ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: raqamli muhit, yozuv ko'nikmasi, raqamli texnologiyalar, tadqiqotchilar, axborot manbalari, viki-texnologiyalar, blog-texnologiyalar.

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ПИСЬМА У УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: Данная статья посвящена цифровым технологиям, применяемым в преподавании иностранных языков для развития навыков письма. В ней рассматривается роль эффективных веб-ресурсов и их значение в формировании языковых навыков. Также дается научное описание педагогико-дидактических особенностей технологий, которые активно используются на сегодняшний день

Ключевые слова: цифровая среда, навык письма, цифровые технологии, исследователи, источники информации, вики-технологии, блог-технологии

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING STUDENTS' WRITING SKILLS IN ENGLISH CLASSES

Abstract: This article provides insights into digital technologies and effective web platforms used to enhance students' writing skills in foreign language education. It highlights their significance in language development and explores the pedagogical and didactic features of modern technologies widely used in the field today.

Key words: digital environment, writing skill, digital technologies, researchers, information sources, wiki technologies, blog technologies.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo bo'ylab ta'lim muassasalari, jumladan oliy ta'lim muassasalari va maktablar ta'lim va o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish

maqsadida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanmoqda. Xususan, kengaytirilgan va virtual reallik (AR/VR) texnologiyalari, hamkorlikka asoslangan ta'lim, mustaqil o'rganish, izlanishga yo'naltirilgan metodlar, loyihaviy ta'lim, integratsiyalashgan ta'lim, "teskari sinf" (flipped learning), mobil ta'lim hamda o'yin asosidagi o'qitish kabi yondashuvlar ta'lim amaliyotiga joriy etilmoqda.

Ta'lim tizimidagi raqamli texnologiyalardan foydalanib dars jarayonlarni tashkil qilish ayniqsa, yozuv ko'nikmalarini shakllantirib, o'quvchilarda yozma nutqni rivojlantirish bugungi kun davr talabidir. Shundan kelib chiqqan holatda hozirda o'rta umumta'lim maktablarida qolaversa, oliy ta'lim muassasalarida dars jarayonlarni tashkillashda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish yanada jadallashmoqda, natijada yozma nutqni rivojlantirishga mo'ljallangan raqamli vosita va ilovalarning yaratilishiga talab oshmoqda va ulardan ta'lim berish jarayonida foydalanish, o'quvchilarning texnologik savodxonligi va raqamli kompetensiyasini rivojlantirishga sabab bo'lmoqda. Chunki sun'iy intellektga asoslangan ilovalarning talaba yoshlarga taqdimotlar tayyorlashga va ular dagi imloviy xatolarni tez topish va bartaraf etishga xizmat qiladi. Shuningdek raqamli texnologiyalar yozma nutqda o'quvchilarning ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishga ham xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, turli texnologik ilovalar, platformalar va internet resurslari til o'rganish, grammatikani mustahkamlash hamda yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi ilmiy tadqiqotlar orqali tasdiqlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yozuv jarayoni rejalashtirish, yozish, tahrirlash va baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi hamda yuqori darajadagi kognitiv faoliyatni talab qiladi. Shuning uchun ham o'quvchilarning chet tillarini o'rganishda va yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda axborot texnologiyalarni yaxshi bulishi ularga tilni yaxshi va samarali o'rganish lariga yanada keng yo'l ochadi. Tadqiqotchilarlardan T.Yu.Paveleva, Y.Y.Markova, M.N.Evstigneev, S.V.Titova, P.V.Sysoyevlar chet tilida yozma nutqni o'rgatishda blog-texnologiyalar, viki-texnologiyalar, axborot manbalarni qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilganlar. Natijalari va o'rganish

natijasida olgan xulosalarini yoritib o'tishgan, ammo bu ham raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish uchun yetarli emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Texnologik vositalardan foydalanish o'quvchilar motivatsiyasini oshirib, ularning yozuv malakalari rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari elektron platformalardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, leksik boyligi va yozma nutq sifatining oshishiga xizmat qilishini ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalar o'quvchilarning yozma faoliyatini qo'llab-quvvatlab, ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi, fikrlarni mantiqiy tarzda tashkil etishga yordam beradi hamda grammatik va imloviy xatolarni tuzatishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Metodist olimlar o'z izlanishlari davomida zamonaviy Internet-texnologiyalar ikki tarkibiy qismga ajratganlar:

telekommunikatsiya texnologiyalari (elektron xatlar, forumlar, ICQ, videokonferensiyalar, veb-konferensiyalar, chatlar hamda Web 2.0 ijtimoiy servislar);

axborot manbalari (hotlist, multimedia scrapbook, treasure hunt, subject sampler va boshqalar). 1.3-jadvalda zamonaviy Internet texnologiyalarining didaktik xususiyatlari hamda ularning metodik funksiyalari keltirilgan.

1.3-jadval

Internet-texnologiyalarning didaktik xususiyatlari va xorijiy tilni o'qitishdagi metodik imkoniyatlari

Internet-texnologiya	Didaktik xususiyatlar	Xorijiy tilni o'qitishdagi metodik imkoniyatlar
Blog-texnologiya	-ommaviylik; -chiziqlilik; -giper matnli tuzilma; -multimediali xususiyat;	yozma nutq, o'qish va tinglab tushunish (audiovizual bloglar yoki podkastlar orqali) ko'nikmalarini rivojlantirish; o'rganilayotgan masala bo'yicha chet tilida tarmoq

	-moderatsiya bitta shaxs tomonidan amalga oshiriladi	orqali munozara tashkil etish imkoniyati
Viki-texnologiya	-ommaviylik; -chiziqsizligi (nolinyearlik); -giper matnli tuzilma; -multimediali xususiyat; -hujjat yaratilish tarixiga kirish imkoniyati	yoza nutq va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish; o'quvchilar uchun darsdan tashqari tarmoq ishlarini til va/yoki madaniyatshunoslik loyihalari ustida tashkil etish imkoniyati
O'quv internet-resurslari	-ommaviylik; -giper matnli tuzilma; -multimediali xususiyat	nutqiy faoliyatning barcha turlarini rivojlantirish

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Bugungi kunda Internet tarmog'ida shaxsiy bloglar yoki viki-hujjatlar yaratish imkonini beruvchi turli xil onlayn platformalarni uchratish mumkin. Jumladan, pbworks.com, mediawiki.com, wikihost.org, blogspot.com va boshqa shu kabi servislar mavjud. Ushbu platformalar chet tili o'qituvchilari uchun Internet texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etishda muhim amaliy yordam ko'rsatadi. Xususan, mazkur platformalarning bepul bo'lishi hamda ulardan foydalanish uchun maxsus dasturlash bilimlarini talab etmasligi o'qituvchiga qisqa vaqt ichida o'ziga zarur bo'lgan ta'limiy resurslarni yaratish imkonini beradi. Chunki ta'lim dargohlarida o'qituvchilar dars jarayonlarni tushunarli va qiziqarli tarzda o'quvchilariga yetkazib berish uchun Internet tarmoqlaridan turli xil ko'rgazmali rasmlar, mavzu doirasidagi yangi ma'lumotlarni izlaydi va o'quvchilariga yetkazadi. Bundan tashqari har xil platformalar orqali prezintatsiyalar yaratib ham yozuv ko'nikmasini yanada rivojlantirsa bo'ladi. Masalan: Canva, Prezipresentation kabi dasturlar orqali tayyorlagan taqdimot va yozuvlarni yanada puxta va mukammal qilish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, chet tillarini o'qitish juda ham murakkab hisoblanadi. Chunki o'quvchilariga chet tillarini o'qitishda yetarli jonli atmosfera- muhit yetishmaydi va real hayotiy video va udiolarga talab kuchayabdi. Bunday ma'lumotlarni topishda internetdagi manbalari bugungi kunda o'qituvchilarning samarali yordamchisidir. Masalan, BBC news, English songs' lyrics, Times news kabi yangilik manbalarining Internet sahifalaridan kunlik yangi real ma'lumot, videolarni olishlari mumkin va bu kabi real videolar o'quvchilarga cognetiv ko'nikmalarini rivojlantirishga tushunish va fikrlash kompetensiyalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Natijada o'quvchilar mavzuga aloqador bilim va dunyoqarashlarini kengaytiradi. Ayniqsa yozuv ko'nikmasini rivojlantirishda ham real hayotiy muhitda oddiy chet ellik aholilardan olingan interyuvlarni eshitib yozish orqali ular ham o'zlarining yozuv hamda tinglab tushunish qobiliyatlarini rivojlantirib borishadi va o'z navbatida bunday audio va videolar so'ngida ushbusuxbatlarga o'z fikr – mulohazalarini chet tilida ifodalashlari gapirish ko'nikmalarini ham oshiradi. Shuning uchun ham ingliz tili darslarida shu metodlardan foydalanish juda ham samaralidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сысоев П.В., Евстигнеев М.Н. Методика обучения иностранному языку с использованием новых информационно-коммуникационных Интернет-технологий: Учебно-методическое пособие. – М.: Глосса-Пресс, 2010. -104 с.
2. Артюхин В.В. Веб 2.0 как источник неконструктивной активности в Интернете // Образовательные технологии и общество. - 2010. № 2, том 13. 226 с
3. Ильина Е.А. Методика развития умений письменной речи учащихся на основе интернет-технологий (Английский язык, средняя школа). дисс. канд. наук. пед. наук. М.: 2013 – 39-с.
4. Musoyeva A.B., Shavkatova M. The use of technology in enhancing students' writing skills. // "Smart technologies and innovative approaches in research: building a digital future" nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami // 2025 – p. 529-533.
5. Common European Framework of reference for language learning and teaching / Draft 1. - Strasbourg: Council of Europe, 1993. – P. 128
6. Hyland K. Second Language Writing. 3rd ed. Cambridge University Press, 2019. – p. 156.
7. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. 5th ed. Pearson Education. 2015. – p. 149.